“Uzbekistan Airports” AJda korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqida 2025 yil II-chorak davri uchun
HISOBOT

“Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish yuzasidan 2025-yil II-chorak hisoboti quyidagicha ko‘rinishni o‘z ichiga oladi.

“Uzbekistan Airports”AJning aloqa kanallari, jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari orqali kelib tushadigan murojaatlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat tuzilmasidan mas’ul xodim tayinlangan bo‘lib, tegishli murojaat kelib tushgan taqdirda mas’ul xodim tomonidan murojaat Reyestrga kiritilib ro‘yxatga olinadi.

Mas’ul xodim tomonidan har xafta kelib tushadigan murojaatlar (xabarlar) tahlil qilinadi. Agar xabarlar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushgan taqdirda, ushbu xabarlar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

O‘tgan davr maboynida “Uzbekistan Airports” AJda jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir bir qator murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda tegishli qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘rganildi.

Boshqaruv raisi tomonidan jismoniy shaxslar, tadbirkorlar va boshqa yuridik shaxslarning vakillari qabul qilinib, ularning bildirgan taklif va e’tirozlari asosida tegishli tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shuningdek, 2025-yilning II-choragi davomida “Uzbekistan Airports” AJga jismoniy shaxslar, tadbirkorlar va boshqa yuridik shaxslar tomonidan korrupsiya faktlariga doir jami 16 ta murojaat kelib tushgan. Ular hududlar bo‘yicha quyidagicha ko‘rinishga ega:

- Xorazm viloyatidan – 3 ta;
- Buxoro viloyatidan – 1 ta;
- Samarqand viloyatidan – 6 ta;
- Surxondaryo viloyatidan – 1 ta;
- Toshkent shahridan – 5 ta murojaat kelib tushgan.

Shundan:

- ishga qabul qilinmayotganligidan noroziligi bo‘yicha – 5 ta;
- korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holati bo‘yicha – 2 ta;
- xaridlar bo‘yicha – 3 ta;

- aeroportning ayrim rahbar, xodimlari faoliyatidan noroziligi holati bo‘yicha – 3 ta;

- boshqa masalar bo‘yicha – 3 ta murojaatlar kelib tushgan.

“Uzbekistan airports” AJ tomonidan mazkur murojaatlar “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tog‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda tegishli qonun hujjatlariga muvofiq o‘rganib chiqilib, murojaat qiluvchilarga tegishli huquqiy tushuntirish berildi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, ayrim murojaatlarda bildirilgan vajlar o‘z tasdiqini topmadi.

“Uzbekistan airports” AJ tomonidan kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish jarayonida ko‘p hollarda ayrim mas’ul shaxslar tomonidan fuqarolarning vajlari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirish berilmaganligi yoki ular bilan yetarlicha muloqot o‘rnatilmaganligi bois, murojaat qiluvchilarda ayrim masalalar yuzasidan shubha uyg‘otganlik holatlari mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, murojaatda ko‘tarilgan masalalar yuzasidan tegishli huquqiy tushuntirish berildi.

Ushbu holatlarni inobatga olib hamda kelgusida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida “Uzbekistan airports” AJ Boshqaruv yig‘ilishlarida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Shuningdek, korrupsiya xatarlari mavjud bo‘lgan yo‘nalishlar ko‘rib chiqilib, informatsion texnologiyalardan foydalangan holda, ko‘rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirish va “inson omili”ni kamaytirish orqali korrupsion holatlarning oldini olishga alohida ahamiyat berilmoqda.

“Uzbekistan Airports” AJ tizimida raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish yuzasidan 2025-yilning II choragi davomida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, xalqaro konsalting kompaniyalarni jalb qilgan holda o‘tkazilgan axborot texnologiyalari auditi natijasi bo‘yicha “Uzbekistan Airports” AJ tizimida 2025-2030 yillar uchun raqamlashtirish strategiyasi ishlab chiqilib tasdiqlandi.

2025-2030 yillarga mo‘ljallangan “Uzbekistan Airports” AJ raqamlashtirish strategiyasida Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi aeroportlarda raqamlashtirish darajasini oshirish, jumladan, operatsion faoliyatini avtomatizatsiyalash, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligi, xavfsizligi va qulayligini oshirish, shuningdek, havo transportini boshqarishning barcha jarayonlari va vositalarini optimallashtirish bo‘yicha 120-ta ustuvor va dolzarb loyihalar belgilab olindi.

Xususan, yoqilg‘i quyish majmuasi boshqaruvi axborot tizimi ishlab chiqildi va test sinov tariqasida Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida joriy etildi. Joriy yil yakunigacha mazkur tizimni Jamiyat tarkibiga kiruvchi 4-ta aeroportlarda joriy etish rejalashtirilgan.

“Uzbekistan Airports” AJ yuk terminali faoliyatida omborlarni aqlli boshqarish “WMC” tizimi ishlab chiqildi va Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida yangi qurilgan UzCargo yuk terminali faoliyatida joriy etildi. Shuningdek, “Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda xodimlarni boshqarish maqsadida “1C:ZUP” dasturiy moduli asosida xodimlarni boshqarish axborot tizimi test-sinov tariqasida joriy etildi.

Tasdiqlangan reja-grafik asosida axborot tizimi bosqichma-bosqich tashkilotlarda joriy etilmoqda va mas’ul xodimlar uchun maxsus o‘quv va amaliy treninglar tashkil etilgan.

Bayon etilganlarga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish “Uzbekistan Airports” AJning asosiy vazifalaridan bo‘lib, korrupsiya faktlariga doir barcha murojaatlar (xabarlar) qat’iy nazoratga olinadi va tizimni korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo‘yicha doimiy ravishda zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo‘limi boshlig‘i **M.Maxkamboyev**